



UDK:811.08

Noila ABDURAXIMOVA,  
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi  
E-mail:nellynelly9160@gmail.com

O'zMU professori, fil.f.d J.Sh.Djumabayeva taqrizi asosida

## INGLIZ, RUS VA O'ZBEK TILLARIDA HIS-TUYG'U KONSEPTLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz, rus va o'zbek tillaridagi asosiy his-tuyg'u konseptlarining lingvokulturologik talqini kompleks qiyosiy tahlil asosida o'rganilgan. Tadqiqotning asosiy magsadi – “quvonch/joy/радость”, “g'azab/anger/гнев”, “muhabbat/love/любовь”, “qayg'u/sadness/печаль”, “qo'rquv/fear/страх” kabi universal hissiy tushunchalarning turli til-madaniy makonlarda qanday semantik, obrazli va qiymatli tuzilishga ega bo'lishini, ularning milliy mentalitet, ijtimoiy me'yorlar va kommunikativ odob-axloq tizimidagi o'rnini aniqlashdan iborat.

**Kalit so'zlar:** his-tuyg'u konseptlari, lingvokulturologik talqin, milliy mentalitet, madaniy kod, semantik maydon, qiyosiy tahlil, obrazli tafakkur, kommunikativ me'yorlar, ingliz tili, rus tili, o'zbek tili.

## ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПТОВ ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье лингвокультурологическая интерпретация основных концептов эмоций в английском, русском и узбекском языках исследуется на основе комплексного сравнительного анализа. Основная цель исследования – определить, как универсальные эмоциональные понятия, такие как “радость/joy/quvonch”, “гнев/anger/g'azab”, “любовь/love/muhabbat”, “печаль/sadness/qayg'u”, “страх/fear/qo'rquv”, приобретают различное семантическое, образное и аксиологическое строение в разных языково-культурных пространствах, а также выявить их место в национальном менталитете, социальных нормах и системе коммуникативного этикета.

**Ключевые слова:** концепты эмоций, лингвокультурологическая интерпретация, национальный менталитет, культурный код, семантическое поле, сравнительный анализ, образное мышление, коммуникативные нормы, английский язык, русский язык, узбекский язык.

## LINGUOCULTUROLOGICAL INTERPRETATION OF EMOTION CONCEPTS IN ENGLISH, RUSSIAN, AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article explores the linguoculturological interpretation of basic emotion concepts in English, Russian, and Uzbek languages through a comprehensive comparative analysis. The main goal of the research is to determine how universal emotional notions, such as “joy/quvonch/радость”, “anger/g'azab/гнев”, “love/muhabbat/любовь”, “sadness/qayg'u/печаль”, “fear/qo'rquv/страх”, acquire distinct semantic, figurative, and axiological structures in different linguocultural spaces, and to identify their place in national mentality, social norms, and the system of communicative etiquette.

**Keywords:** emotion concepts, linguoculturological interpretation, national mentality, cultural code, semantic field, comparative analysis, figurative thinking, communicative norms, English, Russian, Uzbek.

**Kirish.** Til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik insoniyat taraqqiyotining eng murakkab va dolzarb muammolaridan biridir. Til nafaqat fikrlash va mulgot vositasi, balki ma'lum bir madaniy hamjamiyatning tarixiy xotirasi, qadriyatlar tizimi va ruhiyatining tashqi ifodasidir. Shu nuqtai nazardan, inson psixikasining asosiy komponenti bo'lgan his-tuyg'ular til tizimida o'zining eng nozik va ma'noli aksini topadi. His-tuyg'ularni ifodalovchi til birliklari – bu oddiy nomlar yoki sifatlar emas, balki ma'lum bir milliy dunyoqarashning, madaniy kodning va kommunikativ me'yorlarning materillangan shakllaridir.

Lingvokulturologiya – til birliklarini ularning madaniy kontekstdagi funksiyasi va ahamiyati nuqtai nazaridan o'rganuvchi fan sifatida – his-tuyg'u konseptlarini tadqiq qilish uchun ideal metodologik asos hisoblanadi. Konsept, bu so'zning semantik ma'nosidan kengroq tushuncha bo'lib, u ma'lum bir madaniyat vakillari ongida mavjud bo'lgan bilim, tajriba, qadriyat va assotsiatsiyalar majmuasidir [5]. Shunday qilib, “quvonch”, “g'azab” yoki “muhabbat” kabi konseptlar har bir til-madaniy makonda o'ziga xos rang-baranglik va

qatlamlilikka ega bo'lib, ularni o'rganish orqali biz insoniyatning umumiy psixologik tabiatini ham, uning madaniy diversifikatsiyasini ham tushunishimiz mumkin.

Zamonaviy globallashuv davrida madaniyatlararo aloqalar kuchayib, turli tilli va madaniyatli hamjamiyatlar o'rtasidagi samarali mulgot muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda, turli madaniyatlarda his-tuyg'ularni ifodalash va qabul qilishning o'ziga xos xususiyatlarini bilmaslik, ko'pincha tushunmovchiliklar, kommunikativ muvaffaqiyatsizliklar va hatto madaniy to'qnashuvlarga olib kelishi mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati quyidagi sohalarda namoyon bo'ladi:

Madaniyatlararo muloqot va tarjima: His-tuyg'u ifodalaring madaniy jihatlari tushunish, samarali mulgot va tarjimada sadoqatni oshirish.

Til o'qitish: Chet tillarini o'qitishda nafaqat lug'at, balki madaniy kontekstni (hissiy kompetentsiyani) o'rgatish metodikasini takomillashtirish.

Lug'atshunoslik va leksikografiya: Milliy va madaniy o'ziga xoslikni aks ettiruvchi lug'at va ma'lumotnomalar tuzish.

**Adabiyotlar tahlili.** His-tuyg'ularni til vositasida ifodalash va ularning madaniy kontekstdagi o'rni haqidagi tadqiqotlar uzoq tarixga ega va bir qancha fanlar – psixologiya, antropologiya, falsafa, adabiyotshunoslik va, albatta, tilshunoslik chorrahasida rivojlangan. Lingvokulturologik yondashuv esa ushbu maydonlarni integratsiya qilgan holda, til birliklarini ularning madaniy ma'nosi va funksiyasi nuqtai nazaridan o'rganishga qaratilgan.

Konsept nazariyasi va uning rivojlanishi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikda “konsept” tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi. Konsept – bu inson ongida mavjud bo'lgan, til orqali ifodalanadigan, lekin unga to'liq teng kelmaydigan, mazmunan boyroq tushunchadir [5]. Konsept tarkibida tasavvuriy, tushunchaviy, obrazli va qiymatli komponentlar mavjud. A.N.Karaulov ta'kidlaganidek, “til shaxsi” murakkab tizim bo'lib, unda milliy dunyoqarashning kodlangan shakllari, jumladan his-tuyg'ularni konseptlari ham o'rin olgan [2]. Mazkur tadqiqotda biz his-tuyg'ularni konseptini madaniy jihatdan shartlangan psixik holatning mazmuniy va obrazli ifodasi sifatida ko'ramiz.

His-tuyg'ularning lingvistik tadqiqi: universalizm va relativizm. His-tuyg'ularni o'rganishda ikki asosiy qarama-qarshi yondashuv mavjud: universalizm (P.Ekman) va madaniy relativizm (R.Levy). Universalistlar asosiy his-tuyg'ularning (quvonch, g'azab, qo'rquv, nafrat, hayrat, jirkanish) jahon miqosida bir xil ifodalanishi va tan olinishini ta'kidlash, madaniy relativistlar his-tuyg'ularning kognitiv tuzilishi, qadrlanishi va ifodalanishining madaniyatga qarab keskin farq qilishini isbotlashga harakat qiladilar. Lingvistik nuqtai nazardan, A.Vezhbicka (A.Wierzbicka) “tabiiy semantik metal til” (Natural Semantic Metalanguage – NSM) nazariyasini ishlab chiqdi va uning yordamida turli tillardagi his-tuyg'ularni universal semantik primitivlar asosida solishtirishga urindi [7]. Uning “Emotions Across Languages and Cultures” (1999) asarida rus tilidagi toska, dusha, udovolstviye kabi konseptlarning ingliz tilida to'g'ri ekvivalenti yo'qligi va ularning madaniy o'ziga xosligi ko'rsatilgan.

Konseptual metafora nazariyasi va his-tuyg'ular. J.Lakoff va M.Jonsonning “Metaphors We Live By” (1980) asari kognitiv tilshunoslikda inqilob qildi [9]. Ularning fikricha, metafora nafaqat badiiy san'at emas, balki inson tafakkurining asosiy tamoyilidir. Konseptual metaforalar abstrakt tushunchalarni aniqroq, jismoniy tajribaga asoslangan tushunchalar orqali tushunish imkonini beradi. His-tuyg'ular bu jihatdan eng ko'p metaforalashgan sohadorlardan biridir. Z. Kövecses (Z.Kövecses) “Metaphor and Emotion” (2000) asarida anger is heat, happiness is up, sadness is down kabi universal metaforik modellarni ko'rsatgan bo'lsa-da, ularning har bir tilda qanday aniq materiallanishi va qaysi madaniy modellarga (masalan, anger is fire yoki anger is a fluid in a pressurized container) moyil ekanligini o'rgandi [8]. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, g'azabning issiqlik metaforasi ko'p tillarda uchrasa-da, uning aniq realisatsiyasi (olov, qaynoq suv, bug') madaniyatga bog'liq.

Rus tilshunosligida his-tuyg'ularni konseptlarini o'rganish. Rus tilshunoslik an'anasida his-tuyg'ularni tilini o'rganish keng va chuqur rivojlangan. N.D.Arutyunova “Язык и мир человека” (1999) asarida til insonning dunyoni idrok etish va tashkil etish vositasi ekanligini, his-tuyg'ularni leksikasining esa shaxsning ichki dunyosini tashqi dunyoga bog'lovchi muhim kanal ekanligini ta'kidlaydi [1]. V.I.Shakhovskiy o'zining “Лингвистическая эмоция теорий” (2008) asarida emotsional tilning o'ziga xosligi, emotsional kommunikatsiyaning qonuniyatlari va emotsional

diskursni o'rganadi [6]. Yu.D.Apresyan va uning maktabi asosiy his-tuyg'ularning semantik tavsifini ishlab chiqdi va ularning sinonimik qatorlarini tahlil qildi. M.V.Pimenova va boshqalar “Менталитет. Язык. Концепт” (2006) asarida rus mentalitetining o'ziga xos xususiyatlari, shu jumladan dusha, toska, volya kabi konseptlarning tarkibi va rolini o'rganish [4]. “Russkaya grammatika” (1980) va turli rus tilining izohli lug'atlarida ham his-tuyg'ularni leksikasiga alohida e'tibor berilgan.

O'zbek tilshunosligida his-tuyg'ularni leksikasining o'rganilishi. O'zbek tilshunosligida his-tuyg'ularni leksikasi asosan quyidagi yo'nalishlarda o'rganilgan: Leksikografik tavsiflar. A.Nurmonov, H.Nematov, Sh.Rahmatullayev kabi olimlarning lug'atlarida his-tuyg'ularni oid so'zlar berilgan, lekin ularning madaniy-konseptual tahlili cheklangan. Frazeologik va paremiologik tadqiqotlar. O'zbek maqol, matal va iboralarni yig'ish va tavsiflash bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilgan (masalan, A.Nurmonovning “O'zbek tilining frazeologik lug'ati” (2020) [10]. Bu ishlarda ko'pincha ma'no guruhlanishi va grammatik tuzilish tahlil qilingan, ammo ularning chuqur madaniy ma'nolari va konseptual asoslari etarli darajada yoritilmagan. Kontrastiv va qiyosiy tadqiqotlar. So'nggi yillarda o'zbek tilini boshqa tillar (asosan rus va ingliz) bilan solishtirish ishlari kuchaydi (masalan, M.Shomaksudovanning “Til va madaniyat” (2015) asari [11]. Biroq, bu tadqiqotlar ko'pincha umumiy madaniyatlararo farqlarga qaratilgan bo'lib, his-tuyg'ularni konseptlarining aniq semantik maydonlari va tarkibiy tuzilishini qiyosiy tahlil qilish yetarli emas. Psixolingvistik va kognitiv tadqiqotlar. A.Abduazizov, D.Yo'ldosheva kabi olimlarning ma'lum ishlari mavjud, ammo ular o'zbek tilidagi his-tuyg'ularni konseptlarining kognitiv-pragmatik va lingvokulturologik jihatlarini kompleks qiyosiy kontekstda o'rganishga qaratilmagan. Shunday qilib, o'zbek tilshunosligida his-tuyg'ularni konseptlarining lingvokulturologik talqini bo'yicha, ayniqsa, turli tipologik va madaniy guruhlariga mansub tillar (german, slavyan, turkiy) bilan qiyosiy tahlilni o'z ichiga olgan tizimli tadqiqotlar etishmayotganligini ko'rish mumkin. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu ilmiy ishda kompleks metodologik yondashuv qo'llanilib, turli lingvistik va madaniy tahlil usullarini birlashtirishga intilildi. Asosiy metodlar:

Qiyosiy-lingvokulturologik tahlil. Ushbu asosiy metod har uch til materialini parallel ravishda ko'rib chiqish, ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni, ayniqsa madaniy-konseptual darajada aniqlashga xizmat qildi. Tahlilning bir necha darajalari ajratildi: leksik-semantik, frazeologik-paremiologik, pragmatik.

Semantik maydon tahlili. Har bir his-tuyg'ularni konseptining semantik maydoni – ya'ni unga kiruvchi asosiy leksik birliklar (ot, sifat, fe'l, hol), ularning sinonimiya, antonimiya, giponimiya munosabatlari aniqlanadi va solishtiriladi. Masalan, “quvonch” konsepti uchun ingliz tilida joy, happiness, delight, bliss, elation; rus tilida радость, счастье, удовольствие, восторг; o'zbek tilida quvonch, shodlik, xursandchilik, baxt, surur kabi birliklar tahlil qilingan.

Konseptual tahlil. His-tuyg'ularni konseptlarining tarkibiy komponentlari (tasavvuriy, tushunchaviy, obrazli, qiymatli) har bir til uchun alohida ochib berilgan. Konseptual metafora va metonimiya tahlili ushbu komponentni aniqlashda asosiy vosita bo'ldi.

Frazeologik va paremiologik tahlil. Maqol, matal, iboralar va barqaror birikmalar tahlil qilinib, ulardagi tarkibiy qismlarning (obrazlarning) madaniy ma'nosi va konseptual yuklari ochib berildi. Bu usul milliy o'ziga xoslikni aniqlashda juda muhimdir.

**Natijalar va ularning tahlili.** Ushbu bo'limda har bir tanlangan his-tuyg'ularni konsepti uchun ingliz, rus va o'zbek

tillarida o'tkazilgan lingvokulturologik tahlil natijalari taqqoslanadi va umumlashtiriladi.

#### 1. "Quvonch/joy/радость" konseptining tahlili

Ingliz tili: Konseptning asosiy yadrosi joy va happiness so'zlarida ifodalangan. Happiness ko'proq uzun muddatli, umumiy lashtirilgan baxt holatini, joy esa o'tkinchi, kuchli va o'tkir hissiyotni ifodalashga moyil. Keng sinonimik qator mavjud: delight, bliss, ecstasy, elation, glee, jubilation. Bu differensiallashish individual tajribaning nozik qirralarini ajratib ko'rsatishga intilishni aks ettiradi [8]. Cheerfulness, contentment kabi so'zlar quvonchning kamroq intensiv turlarini bildiradi.

Rustili: Asosiy yadro радость so'zi hisoblanadi. Счастье esa happiness ga yaqin, lekin undan ham kengroq va ba'zan taqdir yoki omad bilan bog'liqroq ma'noga ega. Удовольствие (pleasure) – bu ko'proq sezgi yoki qisqa muddatli qoniqish bilan bog'liq. Восторг, ликование, упоение kabi so'zlar kuchli, jo'shqin quvonchni ifodalaydi. Rus tilida quvonch holatini ifodalovchi ko'plab prefikslashgan fe'llar mavjud (обрадовать, порадоваться), bu fe'l orqali hissiyotning kelib chiqish sababi va unga munosabatni ham ifodalash imkonini beradi.

O'zbek tili: Yadro so'zlar quvonch va shodlik hisoblanadi. Baxt ko'proq omad, muvaffaqiyat, umumiy hayotiy shodlikni anglatadi. Xursandchilik va surur kabi so'zlar ham keng qo'llaniladi. O'zbek tilidagi farq shundaki, quvonch holatini ifodalashda ko'pincha fe'l shakllari (quvonmoq, xursand bo'lmoq, shodlanmoq) yoki hol so'zlari (quvnoq, xursand, shod) ishlatiladi, bu harakat-holatning dinamikasiga e'tiborni qaratadi. Juft so'zlar (quvonch-shodlik, xursand-chavandoz) quvonchning to'liq, jo'shqin tabiatini ta'kidlaydi.

#### 2. "G'azab/anger/гнев" konseptining tahlili

Ingliz tili: Anger – umumiy, neytral atama. Rage – o'ta kuchli, nazoratsiz g'azab; fury – olovli g'azab; wrath – diniy yoki poeik kontekstdagi dushmanlik bilan aralash g'azab; ire – adabiy, arxai; indignation – odil g'azab, norozilik; annoyance, irritation – yengil asabiylashish. Bu differensiallashish g'azabning intensivligi, sababi va ijtimoiy qabul qilinish darajasini aniq ajratish imkonini beradi [8].

Rus tili: Гнев ham adabiy, ba'zan baland uslubiy atama. Злость – kundalik nutqda ko'proq qo'llaniladi va yovuzlik hissi bilan aralashgan. Ярость – rage ga yaqin, бешенство – aqldan ozganlik darajasidagi g'azab. Раздражение – irritation. Сердитость – asabiylilik, xafa bo'lish holati. Rus tilida g'azabni ifodalovchi ko'plab prefikslashgan fe'llar (разозлиться, рассердиться, озлобиться) mavjud.

O'zbek tili: G'azab – asosiy, umumiy atama. Jahl, darg'azab – kuchli g'azab. Achchiqlanish, asabiylashish – yengilroq shakllari. Qahr – g'azab va jazolash ma'nosini anglatuvchi adabiy so'z. Zarda – g'azabdan qizarib ketish holati. O'zbek tilida g'azabni ifodalashda tana a'zolari bilan bog'liq so'zlar keng ishlatiladi: jig'i bilan o'ynash, jigar(i) o'rtanglammoq, qoni qaynamoq. Bu g'azabning tanadagi fiziologik ta'siriga urg'u beradi [10].

#### 3. "Muhabbat/love/любовь" konseptining tahlili

Ingliz tili: Love – eng umumiy so'z, ammo uning turlari uchun aniq atamalar mavjud: romantic love, platonic love, familial love, self-love. Passion – ehtiros, affection – mehr, iliqlik, devotion – sadoqat, infatuation – o'tkir, vaqtinchalik ishq. Adore – juda kuchli hurmat va ishq aralashmasi. Diniy kontekstda agape atamasi ishlatiladi.

Rus tili: Любовь – umumiy atama. Влюбленность – o'tkir, romantik ishq holati. Привязанность – bog'lanish, iliqlik (affection). Нежность – noziklik, mehr. Страсть –

ehtiros. Обожание – ado. Увлечение – qiziqish, infatuation. Rus tilida sevgiga oid fe'llar bo'y: любить, обожать, влюбляться, ухаживать.

O'zbek tili: Muhabbat – umumiy, chuqurroq, ba'zan ma'naviy jihatli sevgi. Sevgi – keng qo'llaniladigan umumiy atama. Ishq – kuchli, ehtirosli sevgi, ko'pincha adabiy uslubda. Mehr – mehr-muhabbat, shafqat va g'amxo'rlikni o'z ichiga olgan sevgi (bolalarga, ota-onaga). Sog'inch – sog'inch, iztirob. O'zbek tilida ham sevgi tana a'zolari bilan bog'liq: ko'ngil bermoq, yurak berish, jonidan o'tgan [10].

#### 4. "qayg'u/sadness/печаль" konseptining tahlili

Ingliz tili: Sadness – umumiy atama. Sorrow, grief – chuqurroq, ko'pincha yo'qotish bilan bog'liq qayg'u. Melancholy – uzoq davom etadigan, falsafiy rangga ega qayg'u. Depression – klinik holat. Blues, down – kundalik nutqdagi vaqtinchalik kayfiyat tushishi. Heartache – yurak og'rig'i.

Rus tili: Печаль, грусть – umumiy atamalar. Горе – katta qayg'u, musibat (grief). Тоска – o'ziga xos rus konsepti; bu nafaqat qayg'u, balki chuqur ruhiy tushkunlik, sariqcho'p, noma'lum narsaga intilish hissidir [7]. Уныние – ruhiy tushkunlik. Скорбь – diniy yoki jiddiy yo'qotish bilan bog'liq qayg'u.

O'zbek tili: Qayg'u, g'am – asosiy atamalar. Anduh, hasrat – chuqurroq, alamli qayg'u. Kuyinish, iztirob – azob-uqubat, tashvish. Mung – ichki alam. G'ussa – tashvish, xafa holat. Juft so'zlar keng tarqalgan: alam-hasrat, g'am-qayg'u, anduh-u alam [10].

#### 5. "qo'rquv/fear/страх" konseptining tahlili

Ingliz tili: Fear – umumiy atama. Terror, horror – o'ta kuchli dahshat. Fright – to'satdan qo'rquv. Dread – oldindan seziladigan chuqur qo'rquv. Anxiety – tashvish, bexos qo'rquv. Phobia – irsiy qo'rquv.

Rus tili: Страх – umumiy. Ужас – dahshat. Боязнь – qo'rqish holati. Испуг – qo'rqib qolish. Тревога – tashvish, фобия – fobiya.

O'zbek tili: Qo'rquv – umumiy. Dahshat, vahima – dahshat. Cho'chima, hurkish – to'satdan qo'rqib ketish. Tashvish, xavotir – tashvish. Vahm – ortiqcha vahim.

**Xulosalar.** Ingliz, rus va o'zbek tillarida his-tuyg'u konseptlarining lingvokulturologik qiyosiy tahlili quyidagi asosiy xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

1. Semantik tuzilish va leksik materiallashish darajasida aniq farqlar mavjud. Ingliz tili his-tuyg'ularni individual psixologik holat sifatida nozik differensiallaydi, keng sinonimik qatorlar va nuansli atamalarga ega [8]. Rus tili his-tuyg'ularni kengroq, ba'zan metafizik kontekstda ko'rib, ularni ifodalash uchun prefikslashgan fe'llar va kuchaytiruvchi affikslardan keng foydalanadi [1,4]. O'zbek tili esa his-tuyg'ularni ko'proq obrazli, jamoat va tabiat bilan bog'liq holda ifodalaydi, ko'plab juft so'zlar, hol so'zlar va tana a'zolari leksikasidan foydalanadi [10,11].

2. Konseptual obrazlilik va metaforik modellar har bir madaniyatning o'ziga xosligini aniq ko'rsatadi. Ingliz madaniyati texnika (fuse, boiler), biznes (investment), o'yin (game) va kosmik (cloud nine) obrazlariga moyil [9]. Rus madaniyati jismoniy o'zgarish (выйти из себя), tabiat hodisalari (буря), jang va shikast (разбитое сердце) obrazlariga intiladi [6]. O'zbek madaniyati esa tana a'zolari (jigar, qalb, qon), tabiat (gul, meva, daraxt, osmon) va uy-ro'zg'or (o't, nur) bilan chambarchas bog'liq bo'lgan an'anaviy va organik obrazlarga suyanadi [10,11].

3. Universallik va o'ziga xoslik birgaligida. Barcha tillarda his-tuyg'ularning universal psixofiziologik asoslari (yuqori-quyi, issiq-sovuq, og'ir-yengil metaforalari) mavjud. Biroq, ularning aniq lingvistik realisatsiyasi va ijtimoiy qadrlanishi chuqur madaniy shartlanishga ega [8,9].

## ADABIYOTLAR

1. Арутюнова, Н.Д. Язык и мир человека. – 1996. М.: Языки русской культуры.
2. Караулов, Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – 1987. М.: Наука.
3. Маслова, В.А. Лингвокультурология. – 2001. М.: Академия.
4. Пименова, М.В. Менталитет. Язык. Концепт. – 2006. СПб.: РГПУ им. А.И. Герцена.
5. Степанов, Ю.С. Константы: словарь русской культуры. – 1997. М.: Школа «Языки русской культуры».
6. Шаховский, В.И. Лингвистическая теория эмоций. – 2008. М.: Гнозис.
7. Wierzbicka, A. Emotions Across Languages and Cultures: Diversity and Universals. – 1999. Cambridge University Press.
8. Kövecses, Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. – 2000. Cambridge University Press.
9. Lakoff, G., & Johnson, M. Metaphors We Live By. – 1980. University of Chicago Press.
10. Нурмонов, А., ва бошқ. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – 2020. Тошкент: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
11. Шомаксудова, М. Til va madaniyat: o'zbek va ingliz tillaridagi madaniyatlararo muloqot. – 2015. Тошкент: Turon zamin ziyo.
12. Шарипов, Ш.С. Прагмалингвистика асослари. – 2018. Тошкент: Universitet nashriyoti.
13. Oxford English Dictionary (Online Edition). Oxford University Press.
14. Ожегов, С.И., Шведова, Н.Ю. Толковый словарь русского языка. – 1999. М.: Азбуковник.
15. O'zbek tilining izohli lug'ati (5 jildlik). 2006-2008. Тошкент: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.